



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
O‘ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI HAMDA
YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI**



**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN
KADRLAR TAYYORLASHDA TIL TA’LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ
ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ) MAVZUSIDAGI XVI
AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

TO‘PLAMI

2026-YIL 28-MART

TOSHKENT – 2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası hamda Yevropa va turkiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 28-martda o‘tkazilgan **“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil iyundagi majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 275 bet.

Mas’ul muharrir:

O‘zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig‘i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

G.S. Kurbonova – O‘zMU Fransuz filologiyasi kafedrası professori v. b., (DSc)
A.X.Aripova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh. Sh.Xudaykulova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)

Sh. U.Normatova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.



MUNDARIJA

<u>SUN’IY INTELLEKT TIL TA’LIMIDA: CHATGPT IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING METODIK YO’LLARI</u>	7
SH.U.NORMATOVA (JIDU)	
<u>NEMIS TILI TA’LIMIDA MADANIY KOMPONENTNI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI</u>	13
G.R.ASATOVA (JIDU)	
<u>МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЮРИСПРУДЕНЦИИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО ЮРИСТА</u>	19
Н.Э.ШАРИПОВА (УМЭД)	
<u>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI XORIJIIY TILNI O’QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR</u>	27
K.Q.ISTAMOVA (JIDU)	
<u>O’ZBEKISTONDA CHET ELLIKLARGA TURK TILINI O’QITISH USULLARI VA TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLAR</u>	32
N.SH.XODJAYEVA (JIDU)	
<u>O’ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI</u>	43
M.X.SADULLAYEVA (JIDU)	
<u>ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISH</u>	49
M.F.FOZILOVA (O’zDJTU)	
<u>DIPLOMATIK MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MADANIY RESURSLARNI O’RGATISHNING AHAMIYATI</u>	58
M.D.ABDURAXMANOVA (JIDU)	
<u>TALABA–YOSHLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY USLUB VA MILLIY SHE’RIYATNING O’RNI</u>	64
SH.S.XUDAYKULOVA (JIDU)	
<u>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО–КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ–МЕЖДУНАРОДНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	70
Г.М.РАХМАТУЛЛАЕВА (УМЭД)	



<u>O'ZGARUVCHI DUNYODA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI</u>	76
A.X.ARIPOVA (JIDU)	
<u>QADRIYATLAR VOQELANISHINING DISKURSIV MODEL</u>	83
G.R.KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
<u>ЯЗЫКОВАЯ ПОДГОТОВКА КАК ФАКТОР УСПЕХА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЛИТИКЕ</u>	91
A.B.ATABEKOVA (УМЭД)	
<u>LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI</u>	95
SH.A.XASANOVA (JIDU)	
<u>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA MILLIY REALIYALARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI</u>	102
D.D.SAYFULLAYEVA (JIDU)	
<u>ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	105
B.B. МЯКОТА (УМЭД)	
<u>ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	112
T.D.ПОЛАТОВА (УМЭД)	
<u>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	120
P.Ш.АБДУМУМИНОВА (УМЭД)	
<u>NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARINING MAMLAQATSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI BADIY MATNLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI</u>	126
A.P.NARMATOVA (JIDU)	
<u>РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ</u>	130
Ю.Б.ЮЛДАШБАЕВА (УМЭД)	
<u>ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</u>	134
M.RASULOVA (ToshDO'TAU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TIL ME'YORI VA VARIANTLILIK</u>	142
M.M.ABIDOVA (O'zMU MAGISTRANTI)	



<u>DAVLAT TILI “YUMSHOQ KUCH” QUROLI SIFATIDA</u>	151
S.D.SALIXOVA (JIDU TALABASI)	
<u>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA HUQUQIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI</u>	156
L.M.TURSUNOVA (JIDU TALABASI)	
<u>FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI</u>	162
V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)	
<u>CHET TILINI O‘QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA</u>	167
H.K.IMAMOVA (JIDU)	
<u>INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI</u>	172
Q.N.NAZAROV (JIDU)	
<u>ISPAN TILIDA REKLAMA MATNLARIDA LINGVOKULTURAL KODLARNI O‘RGANISH</u>	180
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>VIRTUAL TA‘LIM MUHITI ASOSIDA ISPAN TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI</u>	185
N.K.XAYRULLAYEVA (JIDU)	
<u>ПЕЙОРАТИВНОСТЬ, ВЫРАЖЕННАЯ ПОСРЕДСТВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ</u>	193
M.K.ZARIPOVA (TepГУ)	
<u>МОТИВАЦИЯ И ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОРЫ РАСШИРЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «BEHAVIOUR / ПОВЕДЕНИЕ»</u>	199
L.A.ABDULLAEVA (UMЭД)	
<u>ISPAN TILIDAGI ILMIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA ANIQLIK</u>	205
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>NAVIGATING THE INTERPLAY OF QUALITY EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: STRATEGIC IMPERATIVES AND TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN UZBEKISTAN’S PEDAGOGICAL LANDSCAPE</u>	211
N.X.RAXIMOVA, B.A.UMIRZAKOVA (UWED)	
<u>TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI</u>	216
O.Q.MO‘MINOVA (O‘zDITU)	



<u>ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</u>	222
F.R.AZIZOVA (JIDU)	
<u>СТОРИТЕЛЛИНГ КАК ФОРМА ЦИФРОВОГО НАРРАТИВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ</u>	227
A.C.KALBAEV (УМЭД)	
<u>TALABALAR TARJIMA FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH METODLARI</u>	233
N.F.BABAMURODOVA (O'zDJTU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>SUN'IY INTELLEKT VA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI: RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA YANGI TENDENSIYALAR</u>	239
S.K.QO'SHIYEVA (УМО'IKTI TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ИНТЕГРАЦИЯ ПОДГОТОВКИ К DELF В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД</u>	247
C.Ю.САЙДАЗИМОВА (УМЭД)	
<u>DONALD J. TRUMPNING INAUGURATSIYA NUTQI: SIYOSIY DISKURS VA TARJIMA STRATEGIYALARI</u>	255
A.R.ABDULLAYEV (JIDU)	
<u>RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI VA SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA O'ZBEK TILI: MILLIY KORPUSNI TAKOMILLASHTIRISH VA SINXRON TARJIMA TEXNOLOGIYALARI</u>	262
SH.J.JAHONOV (JIDU TALABASI)	
<u>РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	269
H.G. БУКРЕЕВА (УМЭД)	

III–IV SHU’BA

RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI: O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSINI TAKOMILLASHTIRISH VA BOYITISH MASALALARI HAMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRIDA SI VA SINXRON TARJIMA BILAN BOG‘LIQ INNOVATSIYALAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI

V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ferdinand Dyushenning “Qamar” romanining o‘zbek tiliga tarjimasida madaniy ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Asardagi milliy–madaniy birliklar, diniy hamda maishiy realiyalarning o‘zbekcha tarjimada aks ettirilishi usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarjimon tomonidan qo‘llangan ekvivalent, adaptatsiya va izohlash strategiyalarining matn mazmuni hamda badiiy–estetik ta’sirni saqlashdagi o‘rni yoritiladi. Maqola davomida fransuz va o‘zbek madaniyatlari o‘rtasidagi tafovutlarning tarjima jarayoniga ta’siri misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarjima, adabiy jarayon, madaniyat, urf–odatlar, asliyat, vositachi til, tarjimashunoslik, tarjimon mahorati, adabiy ta’sir.

Abstract. This article analyzes the issues of cultural equivalence in the Uzbek translation of Ferdinand Düşen's novel “Qamar.” It examines the methods used to render the work's national–cultural units, religious, and domestic realities in the Uzbek version. Additionally, the role of the equivalent, adaptation, and explanation strategies employed by the translator in preserving the text's content and its literary–aesthetic impact is highlighted. The article analyzes, through

examples, the impact of differences between French and Uzbek cultures on the translation process.

Keywords: *translation, literary process, culture, customs, originality, intermediary language, translation studies, translator's skill, literary influence.*

Fransuz adibi Ferdinand Dyushen (Ferdinand Duchêne) o'tgan asrning boshida Jazoirda yashab ijod etgan. F.Dyushen mahalliy xalq hayotidan olib asarlar bitgan. U Jazoirda yashovchi arablar va kabillar (berberlar)ning turmushi, madaniyati va urf-odatlarini juda yaxshi bilgan va buni o'z asarlarida aks ettirgan. F.Dyushen o'nga yaqin romanlar yozib qoldirgan. “Karvonning sokin odimi ostida” (Au pas lent des Caravanes), “Tamilla” (Thamil’la), “Abadiy tog’lar etagida” (Au pied des Monts éternels), “Meddah romani” (Le roman du Meddah), “Qamar” (Kamir), “Rexba” (Rek’ba), “Akfadulik cho’pon” (La Berger d’Akfadou), “Afrika qizi Zina” (Zina l’Africaine) va “Farishtalar bog’i” (Le Jardin des Hespérides) romanlari shular jumlasidandir. Shu romanlardan uchitasi (“Abadiy tog’lar etagida”, “Karvonning sokin odimi ostida”, “Tamilla”) qo’lyozma holidayoq 1921-yili Jazoirning ilk bora e’lon qilingan bosh mukofot “Gran Pri”siga sazovor bo’lgan.

F.Dyushen romanlari 20-yillarda Fransiyada va uning tashqarisida ham keng muvaffaqiyat qozongan. Uning qator romanlari Fransiyada chop etilganidan ko’p o’tmayoq rus tiliga tarjima qilinganligi fikrimizning dalilidir. F.Dyushenning «Qamar» romani 1926-yil Parijda Alben Mishel nashriyoti tomonidan nashr etilgan⁷ va shu yiliyoq rus tiliga o’girilgan⁸. 1927-yilda esa rus tilidan Zarif Bashiriy tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilingan.

⁷ Duchêne Ferdinand. Kamir. Roman d’une femme arabe. -Paris, Albin Michel, 1926.

⁸ Дюшен Фердинанд. Камир. Перевод с французского Н.А.Макшеевой. -Ленинград, Мысль, 1926.

Ma’lumki, chet el adabiyotidan rus tili orqali o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlar tarjimasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘zbekcha tarjimini ruscha matn bilan emas, balki uning asliyati bilan taqqoslash va shu orqali tarjimon ishiga baho berish hollari uchraydi. Bu albatta noto‘g‘ridir. Modomiki o‘zbek mutarjimi asarni rus tilidan o‘zbekchalashtirgan ekan, bu tarjimini uning asliyati bilan emas, balki ruscha matni bilan taqqoslamog‘ va shu yo‘l bilan tarjima haqida hukm chiqarmoq lozim. Shu sabali biz maqolamizda o‘zbekcha tarjimalarni ularning ruscha matnlari bilan taqqoslab o‘rganamiz.

“Qamar” romani voqealari Jazoirning shimolida, Kabiliya atalmish so‘lim o‘lkada bo‘lib o‘tadi. Kabiliyaning tog‘li yerlari O‘rta dengiz qirg‘oqlariga tutash bo‘lib, Jazoirning markazidan Tunis sarhadlarigacha cho‘ziladi. Bugungi kunda sanoati va qishloq xo‘jaligi rivojlangan, hunarmandchiligi qadimdan mashhur. Kabillar Jazoirning tub xalqlaridan bo‘lib, ajdodlari qadimgi karfagenliklarga borib taqaladi. Arablar istilosi davrida aholiningbir qismi Sahroi Kabirga chekingan. Ular tuareglar nomi bilan mashhur, bir qismi o‘z yerlarida qolgan, ularni kabillar deb atashadi.

“Qamar” romanining bosh qahramoni shu ismli qiz, u endigina fransuz maktabini bitirgan. Qamarning zamonaviy ilg‘or fransuz maktabida o‘qishiga uning otasi Bakir “chovush” sababchi bo‘lgan. Bakir fransuz jandarmeriyasida xizmat qilgan, “chovush” – jandarm unvonini olgan, va, nihoyat, iste’foga chiqqan inson. Xotining qarshiliklariga qaramay, qizi Qamarni fransuz maktabida o‘qitgan. Mana endi Qamar shahodatnoma olgan, tamoman fransuzlarga o‘xshash bilimli, tarbiyali. Biroq “qiz o‘n yoshga (asliyatda à treize ans – “o‘n uch yoshga”) to‘lishi bilan uni paranji ostiga olishga to‘g‘ri keldi”. Shunday qilinmasa, Bakir uni arabga erga bera olmaydi.

Asliyatdagi obrazlarning o‘zbekcha tarjimada qay darajada qayta yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Zero asarning asosiy ma’nosini faqat

obrazlargina ochib beradi, asarning shakl va mazmunidan iborat yaxlitligi ham faqatgina obrazlarda aks etadi. Shuning uchun tarjimaning asliyatga mosligini butunni butunga taqqoslashda, asliyatdagi barcha obrazlar tizimini tarjimadagi barcha obrazlar tizimiga qiyoslashda axtarish lozim.

Demak, asliyatdagi obrazlarni tarjimada to’laqonli (adekvat) qayta yaratish asliyat mazmun va mohiyatini kitobxonga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

Qishloq mahkamasida tarjimon bo’lib ishlovchi Ibn Tolib o’qimishli odam, fransuz fuqaroligini qabul qilgan. Fransuzcha kiyinadi, fransuzlar bilan doimiy muloqotda bo’ladi. U hatto Fransiyaning yuksak nishoni “Faxriy legion” ordeniga ham tavsiya etilgan. Biroq u tom ma’nodagi fransuz emas – u ko’chadagina fransuz.

Shu sababli ham Bakir unga “ish bunday bo’ladurg’on bo’lsa, sening syurtuk, galstuk va oq yoqalaring (asliyatda “qalbaki yoqalaring”)ning nima ma’nosi bor?” – deb tanbeh berganida tamoman haqli edi. Bu yerda tarjimon to’g’ri yo’l tutganligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Yuzaki qaraganda u “qalbaki, yasama yoqalarni” “oq yoqalar” deb noto’g’ri tarjima qilgandek. Biroq o’zbekchada tarjimon qo’llagan “syurtuk, galstuk va oq yoqalaringning nima ma’nosi bor?” degan jumla Ibni Tolibning nafaqat yoqasi, balki egnidagi kiyimlarning barchasi qalbaki ekanligini ta’kidlaydi.

O’zbekcha tarjimada Bakirning nutqi xususiyatlari o’z aksini topmagan. Bunda rus tarjimonining “hissasi” katta. Zero asarni fransuz tilidan rus tiliga o’girgan N.A.Maksheyeva asliyatdagi “Son «français» en apparut plus bousculé” jumlasini ruschaga “Его французский язык вдруг захромал” deb tarjima qilsa–da, ruscha matnda bu sezilmaydi. Asliyat muallifi ta’kidlaganidek, Bakir hayajonda, bu hayajon uning nutqida o’z aksini topgan: U Ibn Tolibga shunday deydi:



“– Quisqui c’est, monsieur Bentaleb? A quoi ça te sert alors une cravate, une jaquette et cette faux-col?”⁹ (to’g’ri talaffuz Qu’est-ce que c’est, monsieur Bentaleb? shaklida bo’lishi kerak).

Ruschada esa bu oddiygina: “Что это, г. Бенталеб? К чему тогда твой галстук, сюртук, воротничок?” jumllariga aylanib qolgan. O’zbekcha tarjima ham oddiygina: “Bu nima deganing, Ibni Tolib afandi, ish bunday bo’ladurg’on bo’lsa, sening syurtuk, galstuk va oq yoqalaringning nima ma’nosi bor?”¹⁰.

Romanning bizda mavjud fransuzcha asliyati, ruscha va o’zbekcha tarjimalari o’rtasida katta tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, kabil xalqi hayotiga xos bo’lgan so’zlar va atamalar (realiyalar) ko’p joylarda noto’g’ri tarjima qilingan, ularga izohlar berilmagan, asliyatlardagi ko’p jumlar soddalashtirilgan, qisqartirilgan, milliyashtirilgan.

O’zbekcha tarjimada hatto ayrim atamalarda turfa xil yozilishlar kuzatiladi. Jumladan, tarjimon so’zi “derag’amun” (59–bet), “дирагман” (44–, 86– betlar), “diragumon” (10–bet) va “tarjimon” shakllarida keladi. «Paranji» (77– va hkz), «chodra» (80), “chachvon” (77), “chodir” (79) so’zlari sinonimlar sifatida qo’llaniladi.

XX asrning 20-yillari o’zbek tarjimachiligida Zarif Bashariy alohida o’rin egallaydi. Z.Bashariy F.Dyushenning “Qamar” asarini o’sha davr nuqtai nazaridan yuqori darajada tarjima qilgan. U voqea–hodisalar va qahramonlar tushgan holatlar dramatizmini ham, qahramonlar taqdirining fojeaviyligini ham o’zbekcha tarjimada yuqori darajada bera olgan. Fransuz adibi asarlarining muvaffaqiyatli tarjima qilinishiga, Z.Bashariyning yuksak tarjimonlik mahoratidan tashqari, tarjima uchun to’g’ri asarlar tanlanganligi katta omil bo’ldi. Shuningdek, 20-yillarning ikkinchi yarmida Ferdinand Dyushenning dunyoga mashhur “Qamar” romanining o’zbek tiliga tarjima qilinishi xalqimiz

⁹ Duchêne Ferdinand. *Kamir. Roman d’une femme arabe*. - Paris, Albin Michel, 1926. -P.51.

¹⁰ Дюшен Ф. *Қамар*. -Т.: Маънавият, 1997. -Б.38.

adabiy, madaniy va ma'rifiy hayotida katta voqea bo'ldi. Bu asar ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalq orasiga yoyishga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Xalqimiz bu asarni sevib o'qidi, uning erksevar qahramoni – Qamar a mehr qo'ydi, o'sha yillarda dunyoga kelgan o'zbek qizlari orasida Qamar ismi keng tarqaldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т., 1966.
2. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Т., 1980.
3. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004.
4. Эрматов Б.С. Французская реалистичекая новелла XIX века в переводе на узбекский язык. Дисс.кан.филол.наук., – Т., 1991. – С.216.
5. Duchêne Ferdinand. Kamir. Roman d'une femme arabe. –Paris, Albin Michel, 1926.
6. Дюшен Фердинанд. Камир. Перевод с французского Н.А.Макшеевой. – Ленинград, Мысль, 1926.
7. Дюшен Ф. Қамар. –Т.: Маънавият, 1997. – Б.38.

CHET TILINI O'QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA

X.K.IMAMOVA (JIDU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk tilida “ha” va “yo‘q” leksik birliklaridagi ifoda shaklining turlari, ularning ma‘no xususiyatlari, qo‘llanilish uslubidagi farqlar haqida fikr yuritiladi. Tasdiq va inkorning lingvistik ko‘rsatkichlar yordamida va ohang orqali berilishidagi o‘ziga xoslik ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turk tili, tasdiq, inkor, lingvistik ko‘rsatkich, ohang.